



LOYIHALARGA INNOVATSIYALARINI JALB QILISH JARAYONLARI

Qodirov Farrux Ergash o'g'li

Matematika va ta'limda axborot texnologiyasi kafedrası mudiri

Toshpulatova Nargiza Abduraimovna

Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1 kurs magistranti

E-mail: Toshpulatova Nargiza 1985@gmail.com

ORCID-0009-8105-1638-567X.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15393001>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05- May 2025 yil

Ma'qullandi: 10- May 2025 yil

Nashr qilindi: 13- May 2025 yil

KEY WORDS

innovatsiya, loyiha, iqtisodiyot, startup, iqtisodiy o'sish, innovatsion g'oya.

ABSTRACT

Mazkur maqolada loyihalarga innovatsiyalarni tabiiq etish, ularning samaradorligini oshirish usullari haqida so'z boradi. Innivatsion loyihalarni shakllantirish bosqichlari, boshqaruv yondashuvlari va ularning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati yoritiladi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini innovatsion asoslarga o'tkazish borasida tizimli islohotlar amalga oshirilayotgan bugungi sharoitda, biznesni tashkil etish borasidagi jamoaviy yondashuv, har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Biz yashayotgan zamonaviy dunyoni ilg'or texnologik loyihalar, g'oyaviy ishlanmalarsiz tasavvur etish qiyin. Barcha sohalarda yengillik, qulaylik yaratayotgan innovatsiyalarga bugun jahonning aksariyat davlatida, hatto, eng katta boylik sifatida qaralmoqda.

Tub mohiyati "yangilanish, yangicha yondashuv" ma'nosini anglatuvchi innovatsiya bevosita fan-texnika yutuqlarini aks ettiradi. Yangi g'oya, ishlanmalar esa turli xildagi ixtirolarni yaratishga yo'l ochadi. Mamlakatimizda ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi so'nggi yillarda sezilarli darajada faollashganiga guvoh bo'lyapmiz. Hayotimizning barcha jabhalariga innovatsion yondashuv, yaratuvchanlik ruhini olib kirish davlat siyosatining pirovard maqsadiga aylanib bormoqda.

Bozor iqtisodiyotini rivojlantirishning hozirgi bosqichida, innovatsiyalarni joriy etish, milliy korxonalar raqobatdoshligini oshirish, ularning iqtisodiy mustaqilligini va bozordagi mavqeini mustahkamlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zining "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" [1] va "Inson qadri-bosh mezon" asarlarida innovatsiyalarni rivojlantirish muhimligi haqida ta'kidlagan. Davlatimiz rahbari ilgari surayotgan iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar aynan innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash orqali amalga oshirilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jamiyat va davlat hayotining barcha sohaları shiddat bilan rivojlanayotgani islohotlarni mamlakatimizning jahon sivilizatsiyasi

yetakchilari qatoriga kirish yo'lida tez va sifatli ilgarilashini ta'minlaydigan zamonaviy innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarga asoslangan holda amalga oshirishni taqozo etadi. Sanoatni innovatsion rivojlanishida mavjud iqtisodiy qonunlarni bilish va ularning amal qilishiga ongli munosabatda bo'lishda, mamlakatni

demokratlashtirish va iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilish jarayonlarining mohiyatini tushunishda talabalarni zarur bo'lgan bilimlar bilan qurollantiradi. Mehnatni bilimlar bilan almashtirish talabalarga mehnat faoliyatini ijodkorlik, innovatsiyalar, g'oyalarni ishlab chiqish bo'yicha ajralib turadigan yangi faollik turiga almashtirish orqali ma'naviy yo'naltirilgan faoliyat – intellektual faollikni oshirishga xizmat qiladi.

Innovatsiya ancha keng va tarkiban murakkab, mazmunini ochish uchun ko'p tomonlama yondashuvni taqozo etadigan umumiy kategoriya hisoblanadi.

Innovatsiya – hayotga tatbiq etilgan va tijoriy qimmatga ega bo'lgan g'oya bo'lib, u yangi talablarni yarata oladi, mavjud talablarni samaraliroq ravishda qondiradi va sarf-xarajatlar hamda amaliyotga tatbiqi natijalarining optimal nisbatida iqtisodiy, informatsion, ekologik, ijtimoiy yoki boshqacha turdagi samara keltiradi.[2]

Innovatsiya vazirligi 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarga asosan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi № PF-5264-son «O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida»gi Farmoni hamda 2017-yil 30-noyabrdagi № PQ-3416-son O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini tashqil etish to'g'risida»gi Qaroriga muvofiq tashqil etildi. Vazirlik o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining № PQ-3899-son «Ilmiy va innovatsion faoliyatni integratsiya qilish tizimi samaradorligini oshirishga doir choratadbirlar to'g'risida»gi, № PQ-3682-son «Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada

takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, № PQ-3683-son «Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, № PQ-3698-son «Iqtisodiyot tarmoqlari va

sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi hamda № PQ-3855-son «Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarorlari hamda boshqa tegishli normativ-huquqiy hujjatlar asosida olib boradi.

O'tgan vaqt davomida vazirlik faoliyati innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar negizida iqtisodiyotning barcha tarmoq va ijtimoiy sohalarini jadal innovatsion rivojlantirishni ta'minlashga qaratildi. Jumladan, innovatsion g'oya va

texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish, ularning yanada rivojlanishini ta'minlovchi normativ huquqiy bazani yaratish doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror, farmon va idoraviy normativ-huquqiy hujjatlari tasdiqlandi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2020-yil 24-iyul, O'RQ-630-sonli qarorida:

“innovatsiya — fuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalaniladigan, qo'llanilishi amaliyotda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta'minlaydigan yangi ishlanma;

innovatsion infratuzilma — innovatsion faoliyatni moddiy-texnik, moliyaviy, tashkiliy-uslubiy, axborot, konsultativ va boshqa jihatdan ta'minlaydigan korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, mulkchilikning istalgan shaklidagi ular birlashmalarining majmui;

“innovatsion loyiha — yangi ishlanmalar yaratish uchun bajarish muddatlarini, ijrochilarni, moliyalashtirish manbalarini va tegishli infratuzilmani shakllantirishni nazarda tutuvchi tadbirlar majmui;

innovatsion faoliyat — yangi ishlanmalarni tashkil etish, shuningdek ishlab chiqarish sohasida ularning o'tkazilishi va amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha faoliyat;” [3] haqida so'z boradi.

“Quyidagilarni nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini 2024-2025-yillarda amalga oshirish bo'yicha “yo'l xaritasi” ilovaga muvofiq tasdiqlansin:

innovatsion infratuzilma subyektlari tarmog'ini shakllantirish orqali startap tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash hamda yirik hajmli ishlab chiqarishni tashkil etish;

innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish orqali innovatsion faol tashkilotlar ulushini oshirish;

kichik tadbirkorlikning innovatsion faolligini oshirish orqali hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jadal rivojlantirishni ta'minlash;

yangi turdagi mahsulotlar va innovatsion texnologiyalarni yaratishning g'oyadan yakuniy iste'molchigacha bo'lgan kompleks tizimini ta'minlash orqali innovatsiyalarga bo'lgan talabni rag'batlantirish;

yaratilgan kapitalni “tubdan yangilovchi” innovatsiyalarga qayta yo'naltirish tizimini shakllantirish;” [4] to'g'risida bir qator rejalar belgilanadi. Raqamli iqtisodiyotning innovatsion loyihalarga ta'siri, davlat tomonidan taqdim etilayotgan imkoniyatlar va kelajakdagi rejalariga oid asosiy ma'lumotlarni taqdim etadi.

Innovatsion faoliyatni asosiy qoida va kategoriyalarini o'rganish uchun «innovatsiya» tushunchasining iqtisodiy mazmuni va mohiyatini to'liq o'rganishimiz lozim. Iqtisodiy adabiyotlarda “innovatsiya (ingl. innovation) potensial ilmiy-texnik taraqqiyotni (ITT) yangi mahsulot va texnologiyalar ko'rinishida real taraqqiyotga aylanishi” deb ta'riflanadi.

Bozor iqtisodiyotida innovatsiyalarni tizimli taqdim etish uslubiyoti xalqaro standartlarga asoslangan va unga muvofiq innovatsiya deganda bozorga kirib kelgan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, amaliyotda qo'llanilayotgan yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayon yoki ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan yangicha yondashuv ko'rinishidagi innovatsiyaviy faoliyat natijalari tushuniladi.

Amerikalik iqtisodchi olim J.Brayt “Innovatsiya jarayoni ilm va texnika, tadbirkorlik va boshqaruvni o'zida birlashtiruvchi innovatsiyalarning tijoratlashuviga qaratilgan iqtisodiy faoliyatdir” [5] degan g'oyalarni ilgari surgan. Uning fikricha, “innovatsiya jarayoni g'oya paydo bo'lishidan boshlab, tijorat asosida hayotga tadbqiq etish jarayonigacha bo'lgan barcha bosqichni o'z ichiga oladi” deb ta'kidlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda innovatsion iqtisodiyot, loyiha boshqaruvi bo'yicha ilmiy manbalar tahlil qilindi. O'zbekiston Prezidentining innovatsiyalarni rivojlantirishga oid asarlari va qarorlari asos sifatida olindi. Bundan tashqari, xalqaro tajriba va rivojlangan davlatlardagi innovatsion jarayonlar o'rganildi. Tahliliy yondashuv-innovatsion jarayonlarni baholash uchun zamonaviy metodologiyalar va xalqaro tajriba o'rganildi.

Ilm-fan yutuqlarini keng qo'llagan holda iqtisodiyot tarmoqlariga, ijtimoiy va boshqa sohalarga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni tezkor joriy etish O'zbekiston Respublikasi jadal rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi.

Innovatsion faoliyat O'zbekiston iqtisodiyoti uchun nisbatan yangi tushuncha bo'lib, fan-texnika taraqqiyotini boshqarish jarayonlari va ilmiy-texnik yutuqlarni ishlab chiqarishga joriy etishning asosiy jihatlarini qamrab oladi.

Innovatsiya - mavjud tizimlar rivojlanishini boshqarish jarayoni bo'lib, unda innovatsiyaviy mahsulot amaliy qo'llanilish bosqichigacha olib kelinadi va bozor muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Xulosa va Tavsiyalar. Loyihalarga innovatsiyalarni jalb qilish jarayoni O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mamlakatda ilm-fan va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bilan bog'liq mavjud vaziyatni o'zgartirish maqsadida davlat boshqaruviga oid chora-tadbirlarini maqsadlar, omillar, harakatlar va ayniqsa, tashkiliy tuzilmalarga, shuningdek, motivatsiya va moliyalashtirish usullariga asoslangan holda yanada jonlantirish zarur. Bundan tashqari, innovatsion muhit, innovatsiyalarga bo'lgan talab va rivojlangan infratuzilma, jumladan, innovatsion rivojlanish muvaffaqiyatini shakllantiruvchi institutlarni shakllantirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonini tezlashtirish va davlat xizmatlarini raqamlashtirishni kengaytirish lozim. Ushbu takliflar amalga oshirilsa, O'zbekistonda innovatsion rivojlanishning salohiyati oshadi, xalqaro bozor bilan integratsiyalashuv yanada kuchayadi va global innovatsion iqtisodiyotda O'zbekistonning o'rnini yanada yuqori ko'tariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Жовлиева, Гульшаной. "DISTINCTIVE FEATURES OF TEACHING STUDENTS OF THE PEDAGOGICAL INSTITUTE METHODS USED IN MATHEMATICS LESSONS." Международный мультидисциплинарный журнал исследований и разработок 1.3 (2025): 96-100.
2. X.Boqiyev G.A.Jovliyeva, Aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan maktablarda matematika fanini o'qitish texnologiyasi, xalq ta'limi, 2024/12, 79-81.
3. G. Jovliyeva, Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv usullari, Pedagog, 2023/6, 8-10.
4. Г.А. Жовлиева, Differensial tenglamalarga oid tushunchalarni o'qitishning o'ziga xosligi, Belarus international scientific research conference, 2023/6, 2023/6.
5. Gulshanoy Jovliyeva, Methodological-mathematical training of primary school teachers and duties, Pedagog, 2023/2, 166-168.
6. Mirzayeva, Shahlo Ruzmat-qizi. "The importance of studying emotional intelligence in medical students." Journal of Innovation, Creativity and Art (2023): 215-220
7. Dilobar Kuchkarovna Xoshimova, Talabaning kreativ qobiliyatini shakllantirishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish (Aniq fanlarni o'qitish misolida), Xalq ta'limi, 2024/2, 2024/2.
8. Dilobar Kuchkarovna Xoshimova, Directional derivative and gradient of a multivariable function, International Conference on Innovations in Applied Sciences, Education and Humanities, 2024/1/26, 1-9.
9. Khoshimova, D. "THE USING OF EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN TEACHING EXACT SCIENCES AND FORMING THE STUDENT'S CREATIVE ABILITY." Science and innovation 3.B1 (2024): 5-13.
10. K.Z.Negmatova I.N.Ro'zimurodov, D.K.Xoshimova, Ehtimollik va statistika, 2024, 156.

11. Khoshimova. D.K, Use of pedagogical technology in explanation of the Gauss-Jordan method of solving the system of linear equations, WEB OF SCIENTIST, 2024/1, 50-54.
12. Raxmatov, Sherqo'Zi Olimovich. "masofaviy ta'lim dasturlarining ta'lim tizimida afzalliklari va amaliy ahamiyati (moodle, scorm, tutor dasturlari misolida)." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 1.11 (2021): 1263-1270.
13. Gulnoza Raxmatov Sherqo'zi Olimovich, Berdiyeva, O'ZBEKISTON ELEKTRON SAVDO TIZIMIDA MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR, Science and innovation in the education system, 2024/4/8, 16-22.
14. Gulnoza Raxmatov Sherqo'zi Olimovich, Berdiyeva, RAQAMLI IQTISODIYOTNING MAQSAD VA VAZIFALARI VA UNING O'ZBEKISTONDA RIVOJLANISHI, Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 2024/4/8, 11-14.
15. Gulnoza Raxmatov Sherqo'zi Olimovich, Berdiyeva, Raimbek Muzaffarov, ELEKTRON TIJORATNING AN'ANAVIY SAVDO TURLARI BILAN XARAKTERLI XUSUSIYATLARI, Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 2024/4/8, 14-18.
16. Raxmatov Sherqo'zi Akbar Kodirov, Ta'lim jarayonida bulutli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi, Pedagogis Internatsional research, 2023/5/15, 69.
17. Kodirov, Akbar, Gulzor Qamariddinova, and Shahnoza Eshmurodova. "O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM RIVOJLANISHINI SHAKLLANTIRUVCHI IQTISODIY VA MOLIYAVIY OMILLARINI O'RGANISH." YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI 1.01 (2024).
18. Akbar Kodirov, Farangiz Kenjayeva, Marjona Yusupova, MAKTABLARDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ANIQ FAN MAVZULARINI OTISHDA ERISHILAYOTGAN YUTUQ VA KAMCHILIKLAR, Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 2024, 49-52.
19. Kodirov, Akbar Shuxratovich, and Muborak To'lg'in Qizi Nomozova. "MASOFAVIY TALIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARINING ISTIQBOLLI ASOSLARI." Academic research in educational sciences 4.CSPU Conference 1 (2023): 753-756.
20. Kodirov, Akbar, Gulasal Ruziyeva, and Marjona Yusupova. "ELEKTRON QO'LLANMALAR YARATISHDA AUTOPLAY DASTURIDAN FOYDALANISH VA IMKONIYATLARINI TA'LIM TIZIMIDA TALQIN ETISH." Наука и технология в современном мире 3 (2024): 51-55.
21. Shuxratovich, Kodirov Akbar. "KATTA MA'LUMOT BAZALARINI PARALLEL ISHLOV BERISH USULLARINI VA MODELLARINI O'RGANISH." Journal of new century innovations 43 (2023): 93-95.
22. Nuriddinova, Nozima, and Dinora Norboboyeva. "CHET ELDA ALOHIDA YORDAMGA MUHTOJ BOLALARNING INKLYUZIV TA'LIMI." Молодые ученые 3.8 (2025): 160-165.
23. Nuriddinova, Nozima, and Dinora Norboboyeva. "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INKLYUZIV TA'LIMNING ME'YORIY-HUQUQIY BAZASI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI." Наука и инновация 3.8 (2025): 146-151.
24. Salimova, Marjona, and Nozima Nuriddinova. "AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA TABIIY ILMIY FANLARNI O'QITISHDA DOLZARB MUAMMOLAR VA ULARNI HAL QILISHNING INNOVATION USULLARI." Наука и инновация 2.38 (2024): 161-164.

25. Nuriddinova, Sevinch, and Nozima Nuriddinova. "Increasing the effectiveness of learning biology lessons by means of interactive games and interactive methods." Multidisciplinary Journal of Science and Technology 4.7 (2024): 288-290.



**INNOVATIVE
ACADEMY**